

ON EXEMPTION FROM INCOME TAXATION AT THE LEVEL OF THE "SUBSISTENCE MINIMUM"

Mirza Qilichbayevich Sabirov

Department of "taxes and taxation" of the Fiscal Institute under the State Tax
Committee PhD
mirzabek525@mail.ru

Abstract

The article deals with the introduction of non-taxable personal income, identifies the prospects for the effective organization of tax relations, presents relevant conclusions, scientific proposals and practical recommendations.

Keywords: Tax Reforms, Tax Burden, Tax Benefits, Interim Taxable Minimum, Personal Income Tax, Property Tax.

INTRODUCTION



Kirish. Kishilik jamiyatida zamonaviy davlatchilik turlari shakllanishi bilan davlat va aholi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, davlat tomonidan fuqarolarning turmush tarzi va darajasi bilan qiziqishning aniq statistik ma'lumotlar, kuzatuvlar, ijtimoiy so'rovlar va ijtimoiy- iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan usullari shakllangan. Shu asnoda "qashshoqlik chegarasi", "yashash minimumi", "kun kechirish uchun zarur eng kam miqdor", "iste'mol savati", "bozor savati", "iste'mol narxlari indeksi", "eng kam ish haqi miqdori" va "soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad" kabi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar paydo bo'lgan.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning barchasida va rivojlanayotgan mamlakatlarning ham aksariyat ko'pchiligida yuqorida sanab o'tilgan kategoriyalar ushbu davlatlarda olib boriladigan ijtimoiy va makroiqtisodiy siyosatning muhim elementlari hisoblanadi. Ulardan byudjet va soliq siyosatini ishlab chiqishda, xususan byudjet daromadlarini shakllantirish, soliqqa tortilmaydigan minimumni o'rnatish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorini, shuningdek yoshga doir davlat pensiyasi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarning miqdorini belgilashda foydalaniladi.

"Yashash minimumi" yoki "kun kechirish uchun zarur eng kam miqdor" aynan qambag'allik chegarasini o'zida ifodalaydi. Ya'ni, inson yoki oila yashash minimumi miqdoridan kam daromadga ega bo'lsa, bunday kishi (oil) kambag'al hisoblanadi.[1] Biroq, kambag'allik chegarasi nisbiy tushuncha bo'lib, u turli mamlakatda turlicha belgilanadi. Bunday chegara muayyan bir mamlakatda o'rnatilgan kun kechirish uchun zarur eng kam miqdorga bog'liq, agar mazkur davlatda shunday miqdor belgilangan bo'lsa. Chunki, hamma davlatlarda ham yashash minimumi belgilanmagan, shu jumladan O'zbekistonda ham.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nazariy adabiyotlarda va ayrim mamlakatlarning qonun hujjatlarida yashash minimumiga berilgan ta'riflarni yoki uning mohiyatini yoritib beruvchi tushunchalarni uchratish mumkin. Mazkur kategoriyaga berilgan ta'riflar adabiyotlarda turlicha berilgan bo'lsada, ular mohiyatan bir xil ma'noni anglatadi.

Rossiyalik olim Yu.Markovning ta'rifiga ko'ra, yashash minimumi – bu, muayyan bir mamlakatda hayot kechirishning ma'lum bir darajasini ta'minlash uchun zarur hisoblanadigan daromadning minimal miqdoridir.[2] Mazkur ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, u nisbatan mavhumroq bo'lib, hayot kechirishning ma'lum bir darajasi ifodalangan. Lekin aynan tirikchilik chegarasi haqida gapirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda, davlat tomonidan fuqarolarning turmush tarzi va darajasi bilan qiziqishning aniq statistik ma'lumotlar, kuzatuvlar, ijtimoiy so'rovlar va ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan usullari shakllangan. Shu asnoda “kambag'allikni qisqartirish”, “yashash minimumi”, “kun kechirish uchun zarur eng kam miqdor”, “iste'mol savati”, “bozor savati”, “iste'mol narxlari indeksi”, “eng kam ish haqi miqdori” va “soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad” kabi ijtimoiy- iqtisodiy kategoriyalar qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalari. Bizning fikrimizcha, quyidagi ta'rif yashash minimumining mohiyatini oldingi ta'rifga ko'ra kengroq yoritgan: “yashash minimumi – inson organizmining normal faoliyatini ta'minlash va uning sog'ligini saqlash uchun ytarli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek shaxsning asosiy ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan nooziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar minimal hajmining qiymatdagi kattaligidir”[3]. Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifda insonning normal fiziologik holatini ta'minlash va uning birlamchi ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan eng kam miqdor yashash minimumi sifatida e'tirof etilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yashash minimumi tushunchasiga aksariyat mamlakatlarning qonun hujjatlarida ham ta'riflar keltirilgan. Xususan, Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida yashash minimumiga “iste'mol savatining qiymatdagi ifodasi, shuningdek majburiy to'lovlar va yig'imlar”[4] sifatida ta'rif berilgan. Rossiya qonunchiligidagi ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, yashash minimumi iste'mol savatining puldagi ekvivalenti hamda insonning turmush kechirishi mobaynida to'lashi lozim bo'lgan majburiy to'lovlar va yig'imlar jamlamasidan iborat. Demak, yashash minimumi iste'mol savati bilan qiymat nuqtai nazaridan aynan bitta narsa emas, balki o'z ichiga qo'shimcha ravishda yana insonning to'lashi lozim bo'lgan soliqlarini ham oladi.

Quyidagi jadvalda yashash minimumining eng yuqori miqdorlari o'rnatilgan 10 ta Yvropa mamlakatlarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Yashash minimumining eng yuqori darajalariga ega bo'lgan 10 ta Yvropa davlatlari qiyosiy tahlili [5]

T/r	Mamlakat	Yashash minimumi (bir oy uchun), yvro
1.	Lyuksemburg	2000

2.	Norvegiya	1500
3.	Germaniya	1240
4.	Finlyandiya	1170
5.	Buyuk Britaniya	1087
6.	Niderlandiya	1080
7.	Frantsiya	1030
8.	Belgiya	1030
9.	Avstriya	1010
10.	Shvetsiya	1000

Ko‘rinib turibdiki, Lyuksemburg Yvropada yashash minimumining eng yuqori darajasi o‘rnatilgan davlatdir. Chunki, Lyuksemburg aholisi ko‘p bo‘lmagan, biroq yuksak darajada rivojlangan sanoatga va moliya institutlariga ega mamlakat hisoblanadi.

Bu reytingdagi ikkinchi o‘rinni Germaniya egallagan. Oxirgi yillarda eksport hajmlari bir muncha qisqarganligi munosabati bilan iqtisodiyoti sezilarsiz zaiflashganiga qaramasdan, bugungi kunda mazkur mamlakat barqaror iqtisodiyotga ega.

Finlyandiya 2017 yil yakunlari bo‘yicha bir oylik yashash minimumi 1170 yvroni tashkil etgan. Bu summa barcha to‘lovlarni, shu jumladan soliqlarni, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari qiymatini o‘z ichiga oladi.

Buyuk Britaniya ham Yvropaning yuqori darajadagi yashash minimumi o‘rnatilgan mamlakatlaridan hisoblanadi. Xususan Angliyada juda yuqori ish haqi darajalari kuzatiladi. Bu yerda kishilar yiliga o‘rtacha 35000 funt sterling miqdorida ish haqi olishlari mumkin. Bu yiliga taxminan 39300 evro degani. Angliyada o‘rtacha oylik ish haqi miqdori 3200 evroni tashkil etadi. Bundan tashqari mazkur davlat o‘zining juda kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi bilan ham ajralib turadi. Angliyada ishsiz kishilarga haftasiga kamida 125 yvro miqdorida ishsizlik nafaqasi to‘lab boriladi.

Norvegiya ham yuqori darajadagi yashash minimumiga ega davlatlardan hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich mamlakat bo‘yicha oyiga o‘rtacha 1500 yvroni tashkil qiladi.

Frantsiyada yashash minimumi oddiy ishchilarning o‘rtacha oylik ish haqi miqdoridan qariyb uch baravarga kam bo‘lib, 1030 yvroni tashkil qiladi. Bu mamlakatda ishlovchilar 2018 yilda oyiga o‘rtacha 3200-3600 yvro miqdorida daromad oladilar.

Avstriyada yashash minimumi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi miqdoridan ikki barobar kam bo‘lib, oyiga 1010 yvroni tashkil etadi.

Shvetsiyada yashash minimumi 1000 evro bo‘lib, eng kam ish haqi miqdori 2000 yvrodan oshadi. Bu mamlakatda ishsizlik darajasi juda past bo‘lib, ish bilan ta‘minlanmagan odamlar soni juda kamchilikni tashkil qiladi. Shunday bo‘lsada, agar kishi ishsiz bo‘lsa, unga oyiga 280 evro miqdorida ishsizlik nafaqasi to‘lanadi.

Yvropaning Italiya, Ispaniya, Shveytsariya va Gretsiya kabi davlatlarida o‘rnatilgan yashash minimumi oyiga 1000 yvrodan kamroqni tashkil etsada, Yvropaning qolgan mamlakatlari bilan solishtirganda sezilarli miqdorda ekanligini ko‘ramiz.

Xususan, Italiyada bu ko'rsatkich oyiga 855 yvroni tashkil etgani holda, yashash minimumi miqdorlari bo'yicha Yvropaning top o'ntalik mamlakatlaridan keyingi o'rinda turadi.

So'nggi paytlarda O'zbekistonning ommaviy axborot vositalarida mamlakatimizda «iste'mol savati» va «kun kechirish uchun zarur miqdor» tushunchalari qabul qilinishi haqidagi xabarlar paydo bo'ldi. Mazkur atamalarning joriy etilishi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan 2018 yilgi Davlat dasturi loyihasida ko'zda tutilganligi va mazkur kategoriyalar 2018 yilning 1 iyuliga qadar amalga tatbiq etilishi rejalashtirilayotganligi ma'lum bo'ldi[7]. Biroq, bu kategoriyalarni ishlab chiqish yana kun tartibidan olib tashlandi.

Qayd etilishicha, mazkur tushunchalarning iste'molga kiritilishi aholi real daromadlari, oylik maosh, pensiya, ijtimoiy nafaqa va boshqa to'lovlar miqdorining «iste'mol savati» va «kun kechirish uchun zarur miqdor» bilan mutanosibligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yashash minimumi va uning asosida yotuvchi iste'mol savati turli mamlakatda turlicha hisob-kitob qilinishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda shu paytga qadar iste'mol savati yoki yashash minimumini hisoblab chiqishning biron-bir rasman qabul qilingan uslubiyati mavjud emas. Bu borada qariyb tadqiqotlar ham olib borilmagan.

O'zbekistonlik ekspert D.Ismailovning "Biznes-daily" elektron nashriyotida chop etilgan maqolasida iste'mol savatining tarkibini aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari aks etgan.[8] Tadqiqotni amalga oshirish uchun Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi 100 ta fuqaro respondent sifatida jalb qilingan. Bunda ularning iste'mol sarflari va ehtiyojlari so'rov asosida aniqlangan. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, Toshkent shahridagi bozorlar va supermarketlarda amalda bo'lgan iste'mol narxlarining o'rtachasi asosida iste'mol savati tarkibi ishlab chiqilgan. Iste'mol savati 2017 yil aprel holatiga tuzilgan bo'lib, tarkibiga CPI standarti bo'yicha 100 turdagi iste'mol tovarlari kiritilgan. Ushbu iste'mol savati aholining quyidagi sotsial-demografik guruhlariga bo'yicha ishlab chiqilgan:

1. 16 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan erkaklar.
2. 16 yoshdan 54 yoshgacha bo'lgan ayollar.
3. Pensiya yoshidagi kishilar.
4. 6 yoshgacha bo'lgan bolalar.
5. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar.

Shunday qilib, o'z ichiga iste'mol tovarlari, dori-darmon, kiyim-kechak, kommunal xizmatlar va mahalliy soliqlarni olgan yashash minimumi aholining sotsial-demografik guruhlariga bo'yicha quyidagicha chiqqan:

1. Erkaklar – 1011612 so'm.
2. Ayollar – 1122378 so'm.
3. Pensiya yoshidagi kishilar – 1076273 so'm.
4. 6 yoshgacha bo'lgan bolalar – 1062753 so'm.
5. 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar – 1125849 so'm.

Tadqiqotchilarning xulosa qilishicha, yoshga doir pensianing eng kam miqdori 1005500 so'm, ikkita bolasi bor ayollarning minimal oylik maoshi 3308600 so'm, uchta

boqimandasi bor erkaklarning minimal oylik maoshi 4267600 so'm, ishsizlik nafaqasi 1100000 so'm, 3 yoshgacha bola parvarishida bo'lganlar uchun nafaqa 1049800 so'm bo'lishi lozim.[9]

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda fuqarolarning soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori hozirgi sharoitda kamida 1255000 so'm qilib belgilanishi lozim.

Deklaratsiyalash asosida fuqarolarning daromadlarini soliqqa tortishda ilg'or xorij tajribalaridan kelib chiqqan holda quyidagi ijtimoiy chegirmalarni belgilab qo'yish zarur:

fuqarolarning favquloddagi zararlari (tabiiy ofat, yong'in, o'g'rilik, firibgarlik va boshqa shu kabilar oqibatida ko'rgan);

tibbiy xarajatlar;

hayotni va mol-mulkni sug'urta qilish qiymati;

shaxsiy turar joyi bo'yicha mol-mulk va er solig'i summalari;

yaqin qarindoshlardan o'zaro yordam sifatida berilgan moliyaviy yordam summasi.

REFERENCES:

- [1]. Markov Yu.A. Projitochniy minimum kak sredstvo borbi s bednostyu: illyuziya
- [2]. ili realnost? // V mire nauchnix otkritiy. – 2013. - №1.3. – S.90. [Elektron resurs] <https://elibrary.ru>
- [3]. Markov Yu.A. Projitochniy minimum kak sredstvo borbi s bednostyu: illyuziya ili realnost? // V mire nauchnix otkritiy. – 2013. - №1.3. – S.90. [Elektron resurs] <https://elibrary.ru>
- [4]. Skuzatova O.G. Finansovaya sushchnost ekonomicheskoy kategorii «projitochniy minimum» i ee rol v optimizatsii regionalnix finansov i obespechenii natsionalnoy bezopasnosti // Sborniki konferentsiy NITs Sotsiosfera. – 2012. - №36. – S.57. [Elektron resurs] <https://elibrary.ru>
- [5]. Federalniy zakon RF ot 24.10.1997 g. №134-FZ «O projitochnom minimume v Rossiyskoy Federatsii»(red. ot 28.12.2017) [Elektron resurs] <http://www.consultant.ru>
- [6]. И.М.Ниязметов. Даромадларни солиққа тортиш тизимини унификациялаш. 2018/4 Халқаро молия ва ҳисоб (Ташкент) 5-7 бетлар
- [7]. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –Т.: “Sharq”. 2019. - 525 b.
- [8]. <https://daryo.uz>
- [9]. Ismailova D. Potrebitelskaya korzina i fakticheskiy projitochniy minimum v Uzbekistane // [Elektron resurs] <http://www.biznes-daily.uz>
- [10]. www.oecd.org
- [11]. Ismailova D. Potrebitelskaya korzina i fakticheskiy projitochniy minimum v Uzbekistane // [Elektron resurs] <http://www.biznes-daily.uz>
- [12]. И.М.Ниязметов. Международный опыт налогообложения недвижимости. Федеральное государственное бюджетное учреждение" Российская академия наук" 2021 г 125 с.